ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti




№4(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 224 sahifa,*
*27-aprel, 2026-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии ........ 10
Тургунова Нилуфар Абдусаломовна

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ........ 16
Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon

Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов ........ 19
Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна

Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi ........ 26
Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi

M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi ........ 29
Sattarov Farrux Nuridinovich

Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish ........ 35
D. K. Ibadullayev

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati ........ 41
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna

Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов........ 46
Юсупова Элеонора Фердинандовна

Matematika o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik ........ 51
Matyaqubova Nazira Hikmat qizi

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli........ 54
Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li

Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL) ........ 60
M. D. Boynazarova

Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки ........ 63
Нормуратов Абдулла Саппарович

Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi ........ 67
Normuratov Abdulla Sapparovich

O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari ........ 70
Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi

Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida)........ 74
Omonova Charos Baxodir qizi

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish........ 79
Saidova Zulfizar Norbobo qizi

O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish........ 83
Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna

Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida ........ 91
Abdullayev Botir Jabbor o'g'li

Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati........ 93
Abdumannan Maxammatov

"Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi" ........ 97
Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna

Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language........ 104
Absamatova Charos

Fizika fanini otmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati ........ 107
Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munojat Mustafoyeva Oltibekovna

Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish .. 111
Allamuratov G'ofur Ashurovich

Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi ........ 116
Amanova Albina Dexqon qizi

Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness ........ 120
Berdiqulova Zamira Albertovna

The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being . 124
Dilbar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna

Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati ........ 127
Erboyev Suxrob Abdusalomovich

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari ........ 131
Gulmira Jumanova

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi ........ 135
Hasanova X. Z.

Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi ...... 139
Hikmatov Bobobek Saydulloyevich

ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri ........ 142
Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi

Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari ........ 146
Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna

David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari........ 149
Mo'minov Baxtiyor Karamatovich

Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari ........ 154
Oblakulova Nodira Abduvali qizi

Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi........ 160
Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich

Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari ........ 170
Normaxmatova Feruza Ruziboyevna

Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari ........ 174
O'rishboyeva Xumora O'rol qizi

Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati ........ 177
Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi

Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish ........ 182
Ro'ziboyeva Fotima Qudrat qizi

Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari ........ 187
Sadarova Nilufar

Neyroestetik stimulning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari........ 193
Salaxidinova Xolida Xaliljonovna

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari ........ 198
Salomov Abdurasul Axmadovich

Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi ........ 201
Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaevna Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev

Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari ........ 205
Sojida Safarova Saxadin qizi

Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida ........ 207
Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi

Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish ...... 210
Xoldorova Mashxura G'ulomovna

Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов ........ 214
Нурбаев Бахтиёр Ширинович

Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari ........ 217
To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna

# BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA INDIVIDUAL VA JAMOA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI (CHOLG'U IJROCHILIGI MISOLIDA)

Omonova Charos Baxodir qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya:** Bugungi kunda bolalar musiqa va san'at maktablarida cholg'u ijrochiligi yo'nalishida individual va jamoa mashg'ulotlarini samarali tashkil etish o'quvchi-yoshlarga musiqa san'atini o'rgatishda muhim amaliy jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda bunday mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Individual darslarning o'quvchi ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi o'rni, jamoaviy mashg'ulotlarning esa ansambl ijrochiligi, tinglash madaniyati va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metod va uslublardan foydalanish hamda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish masalalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** bolalar musiqa va san'at maktabi, cholg'u ijrochiligi, individual mashg'ulot, jamoa mashg'uloti, ansambl, orkestr, pedagogik yondashuv, metodika, ijodiy rivojlanish, musiqa ta'limi, o'quv jarayoni, hamkorlik ko'nikmalari.

**Abstract:** The effective organization of individual and group lessons in instrumental performance within children's music and art schools is considered an important practical process in teaching musical art to young learners. In this context, the development of organizational and pedagogical mechanisms for such training becomes essential. The role of individual lessons in developing students' creative potential, as well as the importance of group lessons in forming ensemble performance skills, listening culture, and collaboration abilities, are highlighted. Furthermore, the application of modern pedagogical approaches, methods, and techniques in the teaching process, taking into account students' age and individual characteristics, is examined.

**Key words:** children's music and art school, instrumental performance, individual lesson, group lesson, ensemble, orchestra, pedagogical approach, methodology, creative development, music education, learning process, collaboration skills.

**Аннотация:** В настоящее время эффективная организация индивидуальных и групповых занятий в области инструментального исполнительства в детских музыкальных школах и школах искусств рассматривается как важный практический процесс обучения музыкальному искусству подрастающего поколения. В этой связи особую значимость приобретает разработка организационно-педагогических механизмов таких занятий. Освещаются роль индивидуальных занятий в развитии творческого потенциала учащихся, а также значение групповых занятий в формировании навыков ансамблевого исполнительства, культуры слушания и умений сотрудничества. Кроме того, рассматриваются вопросы применения современных педагогических подходов, методов и приёмов обучения с учётом возрастных и индивидуальных особенностей учащихся.

**Ключевые слова:** детская музыкальная школа, школа искусств, инструментальное исполнительство, индивидуальное занятие, групповое занятие, ансамбль, оркестр, педагогический подход, методика, творческое развитие, музыкальное образование, учебный процесс, навыки сотрудничества.

## KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-112-son[1] qarori [1] ushbu yo'nalishda tub islo-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-112-son qarori: https://lex.uz/uz/docs/-5849580

hotlarni amalga oshirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur qaror hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari oldiga pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni shakllantirish kabi muhim vazifalarni qo‘yadi [3]. Bu esa, o‘z navbatida, musiqa va san’at ta’limi tizimida o‘qitish metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bolalar musiqa va san’at maktablarida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, ayniqsa, cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida individual va jamoaviy mashg‘ulotlarning uyg‘unligini ta’minlash muhim pedagogik masalalardan biridir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, individual mashg‘ulotlar o‘quvchining texnik mahorati va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Jumladan, F. Abdurahimovaning “Orkestr sinfi” nomli qo‘llanmasida jamoaviy ijro jarayonida har bir ijrochining individual tayyorgarligi ansambl uyg‘unligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida talqin etilgan [6].

Shu bilan birga, A. Abdumannotovaning “Cholg‘u ijrochiligi” o‘quv qo‘llanmasida cholg‘u chalishni o‘rgatish jarayoni bosqichma-bosqich olib borilishi, bunda individual yondashuv bilan bir qatorda jamoaviy mashg‘ulotlar orqali musiqiy tafakkur va tinglash madaniyatini shakllantirish muhimligi ta’kidlangan [7].

I. Toshpo‘latova esa an’anaviy dutor ijrochiligi misolida milliy cholg‘u ijrochiligi maktabida ustoz-shogird an’analari individual ta’limning samarali modeli ekanligini qayd etadi [8].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalar musiqa va san’at maktablarida cholg‘u ijrochiligini o‘qitish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish masalalari o‘zbek musiqa pedagogikasida keng o‘rganilgan.

I. Akbarovning 1987-yilda nashr etilgan “Musiqa lug‘ati” asarida musiqiy tushunchalar va ijrochilik terminologiyasi tizimli yoritilib, cholg‘u ijrochiligi jarayonini ilmiy asosda tushunishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

D. Soipovaning 2009-yildagi tadqiqotlarida musiqa o‘qitish metodikasi didaktik tamoyillar asosida tahlil qilinib, individual yondashuv va o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishning ahamiyati asoslab berilgan.

Shuningdek, I. Toshpo‘latovaning 2018-yildagi ilmiy ishlarida an’anaviy cholg‘u ijrochiligi, xususan, ustoz-shogird an’analari individual ta’limning samarali modeli sifatida talqin etilib, milliy ijro maktabining pedagogik imkoniyatlari ochib beriladi.

Zamonaviy yondashuvlar doirasida F. Abdurahimovaning 2018-yilda chop etilgan “Orkestr sinfi” qo‘llanmasida jamoaviy ijro jarayonini tashkil etish mexanizmlari, ansambl uyg‘unligi va ijrochilar o‘rtasidagi hamkorlikning pedagogik asoslari yoritilgan.

A. Abdumannotovaning 2025-yildagi o‘quv qo‘llanmasida esa cholg‘u ijrochiligini o‘qitishda individual va jamoaviy mashg‘ulotlarning o‘zaro bog‘liqligi, o‘quvchilarning texnik va ijodiy rivojlanishini ta’minlash yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

M. Altmeshiva tadqiqotlarida xorijiy tajribalar asosida musiqa ta’limida interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarurligi ta’kidlanadi. Mazkur ilmiy manbalar individual va jamoaviy mashg‘ulotlarni integratsiyalashgan holda tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini ko‘rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma’lumotlar ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, suhbat va amaliy mashg‘ulotlar natijalarini o‘rganish orqali to‘plandi. Bolalar musiqa va san’at maktablarida olib borilayotgan individual va jamoaviy mashg‘ulotlar bevosita kuzatilib, o‘quvchilarning ijrochilik darajasi, hamkorlik ko‘nikmalari va musiqiy tafakkuri rivojlanish dinamikasi qayd etildi. Shuningdek, o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlar orqali mashg‘ulotlarni tashkil etishdagi mavjud yondashuvlar va muammolar aniqlashtirildi.

To‘plangan ma’lumotlar qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari yordamida qayta ishlanib, individual va jamoaviy mashg‘ulotlarning samaradorligi o‘zaro taqqoslandi. Natijalar asosida pedagogik jarayonning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, ularni takomillashtirish bo‘yicha xulosalar shakllantirildi. Olingan natijalar ilmiy tahlil asosida umumlashtirilib, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik yondashuvlar belgilab olindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalar musiqa va san’at maktablarida cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ta’lim jarayonini samarali tashkil etish o‘quvchilarning musiqiy savodxonligi, ijrochilik mahorati hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda individual va jamoaviy mashg‘ulotlarning o‘zaro uyg‘unligi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Avvalo, individual mashg‘ulotlar o‘quvchining shaxsiy qobiliyat-

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

lari, texnik imkoniyatlari va musiqiy didini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda o'qituvchi har bir o'quvchiga alohida yondashadi. Individual darslar davomida cholg'u sozini to'g'ri tutish, tovush hosil qilish texnikasi, ijro apparatini shakllantirish, nota savodini egallash hamda asar ustida ishlash ko'nikmalari bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Bu jarayonda o'quvchining yosh xususiyatlari, psixologik holati va qiziqishlari inobatga olinishi muhimdir. Individual mashg'ulotlar ijrochining mustaqil ishlash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Shu bilan birga, jamoaviy mashg'ulotlar – ansambl va orkestr darslari o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, bir-birini tinglash, umumiy ijro uyg'unligini his etish kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi. Jamoa tarkibida ijro etish o'quvchini intizomga, mas'uliyatga va ijodiy hamjihatlikka o'rgatadi. Ayniqsa, orkestr sinflarida har bir cholg'u partiyasining umumiy musiqiy tuzilishdagi o'rni tushuntiriladi, bu esa o'quvchining musiqiy tafakkurini kengaytiradi.

Individual va jamoaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi mexanizmlar muhim hisoblanadi.

*Birinchidan,* o'quv reja va dasturlarni to'g'ri tuzish zarur, unda individual darslar bilan bir qatorda jamoaviy mashg'ulotlarga ham yetarli vaqt ajratilishi lozim. Bu ikki yo'nalish bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida qaralishi kerak.

*Ikkinchidan,* zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish muhimdir. Interfaol usullar, amaliy mashqlar, tinglab tahlil qilish, sahna chiqishlari va ijodiy loyihalar orqali o'quvchilarning qiziqishi va faolligi oshiriladi. Ayniqsa, audiovizual vositalardan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini yanada oshiradi.

*Uchinchidan,* baholash tizimini takomillashtirish zarur. O'quvchilarning individual yutuqlari bilan bir qatorda jamoaviy ijrodagi ishtiroki ham baholanishi lozim. Bu esa o'quvchini har ikki yo'nalishda faol bo'lishga undaydi.

*To'rtinchidan,* ustoz-shogird an'analarini zamonaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirish muhimdir. Milliy cholg'u ijrochiligi tajribasida bu usul o'zining samaradorligini isbotlagan bo'lib, u o'quvchining ijodiy shakllanishida katta rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, o'quvchilarning sahna tajribasini oshirish ham muhim omil hisoblanadi. Turli konsertlar, tanlovlar va festivallarda ishtirok etish orqali ular o'z bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan mustahkamlaydilar. Bu esa nafaqat ijrochilik mahoratini, balki sahna madaniyatini ham rivojlantiradi.

Musiqa ta'limining nazariy asoslaridan biri sifatida nota savodi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ijrochining musiqiy asarni to'g'ri tushunishi va talqin etishida asosiy vosita hisoblanadi. Manbalarda qayd etilishicha, nota – bu musiqiy tovushlarning balandligi va davomiyligini ifodalovchi yozuv tizimi bo'lib, u ijrochilik faoliyatining ajralmas qismi sanaladi [10].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bolalar musiqa va san'at maktablarida cholg'u ijrochiligi bo'yicha individual va jamoa mashg'ulotlarini ilmiy asosda tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalalardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotimiz mavzusidan kelib chiqib, ayrim tushunchalarga ta'rif berishni joiz deb topdik.

Bolalar musiqa va san'at maktabi – bolalarning musiqiy va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'lim muassasasi bo'lib, unda nazariy bilimlar va amaliy ijrochilik ko'nikmalari shakllantiriladi [2].

Cholg'u ijrochiligi – turli musiqa cholg'ularida musiqiy asarlarni ijro etish san'ati bo'lib, texnik mahorat, musiqiy eshituv va badiiy ifodani o'z ichiga oladi [4].

Individual mashg'ulot – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yakka tartibda olib boriladigan dars shakli bo'lib, unda o'quvchining shaxsiy qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos yondashuv amalga oshiriladi. Jamoa mashg'uloti – bir guruh o'quvchilar bilan birgalikda o'tkaziladigan dars turi bo'lib, unda umumiy ijro, o'zaro tinglash va uyg'unlikni saqlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Ansambl – bir nechta ijrochidan tashkil topgan kichik jamoa bo'lib, ular birgalikda musiqiy asarni uyg'un holda ijro etadilar [4].

Orkestr – turli guruhlarga mansub cholg'u sozlari ishtirokidagi katta ijrochilar jamoasi bo'lib, murakkab musiqiy asarlarni jamoaviy tarzda ijro etadi [4].

Pedagogik yondashuv – ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan umumiy prinsip va usullar majmui bo'lib, o'quvchilarning samarali o'rganishini ta'minlashga qaratiladi. Metodika – muayyan fan yoki yo'nalishni o'qitishning aniq usullari, vositalari va yo'llarini o'z ichiga olgan ilmiy-amaliy tizimdir [19].

Ijodiy rivojlanish – o'quvchining mustaqil fikrlashi, yangi g'oyalar yaratishi va san'at orqali o'zini ifoda etish qobiliyatining shakllanish jarayonidir. Musiqa ta'limi – musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim jarayoni bo'lib, u nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi [9].

O'quv jarayoni – ta'lim berish va o'rganish faoliyatining tizimli va maqsadga yo'naltirilgan shakli bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida amalga oshiriladi. Hamkorlik ko'nikmalari – jamoa bilan ishlash, o'zaro muloqot qilish, boshqalarni tinglash va umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda faoliyat yuritish qobiliyatlari majmui hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan vositalardan foydalanib, bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarining tashkiliy-pedagogik mexanizmi ishlab chiqildi. Bolalar musiqa va san'at maktablarida tashkil etiladigan ta'lim jarayoni, avvalo, cholg'u ijrochiligi yo'nalishida o'quvchilarning musiqiy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Bu jarayonda individual mashg'ulotlar muhim o'rin egallab, ular orqali har bir o'quvchining ijrochilik texnikasi, musiqiy tafakkuri va ijodiy salohiyati bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Shu bilan birga, jamoa mashg'ulotlari ham ta'limning ajralmas qismi bo'lib, ular ansambl va orkestr shaklida amalga oshiriladi hamda o'quvchilarda birgalikda ijro etish, o'zaro uyg'unlikni his qilish va umumiy musiqiy asarni yaxlit tarzda talqin etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Mazkur jarayon samaradorligi ko'p jihatdan to'g'ri tanlangan pedagogik yondashuv va puxta ishlab chiqilgan metodikaga bog'liqdir. Zamonaviy musiqa ta'limi tizimida o'quv jarayonini shunday tashkil etish talab etiladiki, bunda individual va jamoaviy faoliyat bir-birini to'ldiradi hamda o'quvchilarning ijodiy rivojlanishiga xizmat qiladi [5]. Ayniqsa, ansambl va orkestr darslari orqali o'quvchilarda hamkorlik ko'nikmalari, mas'uliyat hissi va musiqiy madaniyat shakllanadi. Natijada, bunday yondashuv bolalar musiqa va san'at maktablarida ta'lim sifatini oshirish bilan birga, har tomonlama yetuk va ijodkor ijrochilarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tashkiliy-pedagogik mexanizm modeli mazkur tizimning amaliy ifodasi sifatida bolalar musiqa va san'at maktablarida cholg'u ijrochiligi bo'yicha ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, individual va jamoa mashg'ulotlarini o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Mazkur mexanizm doirasida o'quvchilarda mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, individual ijrochilik va jamoaviy ijro uyg'unligini ta'minlash, ijodiy fikrlash hamda musiqiy tafakkurni rivojlantirish, hamkorlik ko'nikmalari va sahna madaniyatini shakllantirish asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Mazmuniy jihatdan ushbu tizim individual tayyorgarlik, jamoaviy ijro, nazariy bilimlar va amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi. Tashkiliy jihatdan esa mashg'ulotlar individual darslar haftasiga 2–3 marta, ansambl mashg'ulotlari haftasiga 1–2 marta, orkestr mashg'ulotlari haftasiga 1 marta shaklida olib borilishi, shuningdek, ochiq darslar, hisobot konsertlari va ijodiy loyihalar orqali boyitilishi nazarda tutiladi.

Metodik jihatdan differensial va individual yondashuv, interfaol metodlar, ustoz-shogird an'analari hamda audiovizual vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jarayon bosqichma-bosqich tashkil etilib, diagnostika, rejalashtirish, amalga oshirish, integratsiya va baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Baholash jarayonida individual va jamoaviy ijro mezonlari asosida monitoring olib boriladi. Natijada malakali yosh ijrochilar shakllanadi, o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi ta'minlanadi, jamoada ishlash va sahna madaniyati rivojlanadi hamda ta'lim sifati va samaradorligi oshadi. Mazkur mexanizm uzluksizlik va izchillik, individual yondashuv, nazariya va amaliyot uyg'unligi, milliy va zamonaviylik integratsiyasi hamda faollik va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalar musiqa va san'at maktablarida cholg'u ijrochiligi yo'nalishida ta'lim samaradorligi, eng avvalo, individual va jamoa mashg'ulotlarini ilmiy asosda, o'zaro uyg'unlikda tashkil etishga bevosita bog'liqdir. Individual mashg'ulotlar o'quvchining texnik tayyorgarligi, musiqiy eshituv qobiliyati va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutsa, jamoaviy mashg'ulotlar – ansambl va orkestr faoliyati orqali ularning hamkorlikda ishlash, o'zaro tinglash va umumiy badiiy g'oyani anglash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bois, bu ikki yo'nalish bir-birini to'ldiruvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tashkiliy-pedagogik mexanizm mazkur jarayonni tizimli yo'lga qo'yish, mashg'ulotlarni rejalashtirish, amalga oshirish va baholashning samarali modelini yaratishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizmning amaliyotga joriy etilishi o'quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash, ularni jamoaviy ijroga bosqichma-bosqich jalb etish hamda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va ustoz-shogird an'analarining uyg'un qo'llanilishi ta'lim jarayonining sifatini yanada oshiradi. Natijada, bolalar musiqa va san'at maktablarida cholg'u ijrochiligi bo'yicha tashkil etilgan ta'lim jarayoni nafaqat malakali ijrochilarni tayyorlash, balki ularning ijodiy fikrlashi, estetik didi va sahna madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy musiqa san'atini rivojlantirish, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol etib tarbiyalash hamda madaniyat sohasining istiqbolini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-112-son qarori: https://lex.uz/uz/docs/-5849580
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 20-noyabrdagi "Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016 – 2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2435-son qarori: https://lex.uz/ru/docs/-2821557

3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 5-maydagi “Bolalar musiqa va san’at maktablari toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 144-sonli qarori: https://lex.uz/docs/-2947562
4. Akbarov I.A. Musiqa lugʻati. Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. – T., 1987-yil, 448 b.
5. Altmeshiva M.B. Xorijiy mamlakatlarda musiqa ta’limi metodlari va ularni Oʻzbekistonda qoʻllash imkoniyatlari. https://cyberleninka.ru/
6. Abdurahimova F. Orkestr sinfi. “Musiqa” nashriyoti. – T., 2018-yil.
7. Abdumannotova A. Cholgʻu ijrochiligi. Oʻquv qoʻllanma. Samarqand, 2025-yil.
8. Toshpoʻlatova I. “An’anaviy cholgʻu ijrochiligi (dutor)”. Musiqa nashriyoti. – T., 2018-yil.
9. Soipova D. “Musiqa oʻqitish nazariyasi va metodikasi”. Oʻquv qoʻllanma. – T., 2009-yil.
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Nota_(musiqa)

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №4(5)**


© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab taʼlimi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.